

## **MAKTABDA FIZIKA FANI O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN METODIK TALABLAR**

**Raximjanova Feruza Abdumo'minovna,**  
NMTI qoshidagi litseyning fizika fani o'qituvchisi,  
**Mamajonov Sobitxon Abdulxamidovich,**  
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani  
35-maktab Fizika fani o'qituvchisi.

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ilm-fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda Fizika fani o'qituvchilaridan har tomonlama bilimli va madaniyatli bo'lishni, tabiat qonunlarini, zamonaviy texnikani chuqur bilishni talab qilishi, bu esa o'qituvchilar zimmasiga katta vazifalarni yuklashi ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy texnika, intellektual kuchlar, ta'lim standarti, shaxsiy ish reja, metodik ishlar, algoritmlar metodikasi, sinfdan tashqari ishlar.*

## **МЕТОДИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К УЧИТЕЛЯМ ФИЗИКИ В ШКОЛЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье показано, что в период бурного развития науки и техники от учителей физики требуется быть хорошо образованными и во всех отношениях культурными, иметь глубокие знания законов природы и современной техники, что возлагает на учителей большие задачи.*

***Ключевые слова:** Современные технологии, интеллектуальные силы, образовательный стандарт, личный план работы, методическая работа, метод алгоритмов, внеаудиторная работа.*

## **METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR PHYSICS TEACHERS AT SCHOOL**

### **ABSTRACT**

*This article shows that during the period of rapid development of science and technology, physics teachers are required to be well educated and cultured in all respects, to have a deep knowledge of the laws of nature and modern technology, which imposes great tasks on teachers.*

***Key words:** Modern technologies, intellectual forces, educational standard, personal work plan, methodical work, method of algorithms, extracurricular work.*

## **KIRISH**

Zamonaviy davr talabi ilm-fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, Fizika fani o'qituvchilaridan har tomonlama bilimli va madaniyatli bo'lishni, tabiat qonunlarini, zamonaviy texnikani chuqur bilishni talab qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy texnik va texnologik jarayonlarning keng ko'lamda qo'llanilishi ishlab chiqarishga yuqori darajadagi intellektual kuchlarning yetkazib berilishiga zarurat tug'dirmoqda. Bu esa o'qituvchilar zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi. SHulardan biri va eng muhimi fizika ta'limiga qo'yilgan ta'lim standarti, shaxsiy ish rejalar ishlab chiqish va qo'llashdan iboratdir .

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Fizika fani o'qituvchilariga qo'yiladigan meyoriy xujjatlardagi talablar quyidagilardan iborat:

-fizika fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limning va ular asosida tuzilgan o'quv dasturlarini mukammal bilishi;

-fizika bo'yicha metodik ishlarni olib borish talablarini bilishi, amaliyotga tatbiq eta olishi;

-maktab fizika o'quv predmeti bo'yicha o'qitishning turli texnikdidaktik vositalari, mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi, ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini aniqlay olishi;

-fizikadan ko'rgazma-tajriba va laboratoriya ishlarini zamonaviy jihoz va vositalar yordamida o'tkazish malakasiga ega bo'lishi;

-yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan o'qitishning interfaol usullaridan xabardor bo'lishi va ulardan amalda foydalanishni bilishi;

-fizika fani yo'nalishida O'zbekiston tafakkirlarining ma'naviy, ma'rifiy, madaniy meroslarini bilishi va ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;

-fizikadan o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlarini tashkiliy va uslubiy ta'minlashni bilishi;

-iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashtirilgan ta'lim berish shakllari hamda usullarini bilishi

- fizika o'qitishda o'qituvchi xalqaro o'lchov birliklarini va o'quv dasturida ko'zda tutilgan o'lchashlarni bajarishni o'rgatish usullarini bilishi; o'tkazish bo'yicha metodik qo'llanmalardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanish jihatlarini ochib berishi, fizika o'qitish metodikasining ilmiy-metodik tahlili, uning takomillashtirish metodlari va omillariga alohida urg'u berish, hamda fizikadan masalalar yechish algoritmlari metodikasi (sodda masalalar, qiyinroq masalalar, masala shartida darslikda va darsda ko'rib chiqilgan masalalarga nisbatan kamroq tanish bo'lgan holat tavsiflangan

masalalar, yangi bilimlar olish uchun foydalanish mumkin bo'lgan masalalar, sifat masalalar, miqdoriy masalalar, eksperimental masalalar) ishlab chiqilganligi e'tiborga olishi darkor. Shuningdek, qo'llanmalarda ko'rsatilgan fanlararo bog'lanishning ta'limiy ahamiyati, fizika ta'limida integrativ bilimlarning mazmuni va uni o'qitish, laboratoriya ishlarini tashkil etish va o'tkazish kabi masalalarni sinflar kesimida ishlab chiqilganligini tushuntirishlari lozim. Bundan tashqari qo'llanmalarda ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan Fizikadan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun to'ldirilgan va takomillashtirilgan me'yoriy hujjatlarni o'rganish, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish, "Fizika to'garagi", "Fizikadan mavzuli kecha tashkil etish va o'tkazish", Fizika kursi samaradorligini aniqlash", kabi masalalar o'z yechimini topgan. SHuningdek, o'rta maktabda fizika o'qitishning maqsad va mazmuni hamda uni takomillashtirish jihatlarining yoritishda didaktika, pedagogika, psixologiya fanlarining hozirgi zamon yutuqlaridan foydalanilganligi ham qo'llanmalarda ko'rsatilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Xayrulla Inatov Fizika o'qitish metodikasi (Malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma) «Tafakkur» nashriyoti Toshkent-2010.
2. K.T.Suyarov, N.B.G'ofurov, R.K.CHoriev "Umumta'lim maktablarida fizika fanidan laboratoriya ishlari.
3. Махаматрасул Джо'раев "Ffizika o'qitish metodikasi". Toshkent «Abu matbuot-konsalt» 2015 y.
4. Алижанов Д. 6-синф физика фанини фанлараро ўқитишнинг назарий таҳлили //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 4/S. – С. 417-422.
5. Alizhanov, D. A., & Zokhidov, I. O. (2021). Teaching in Physics "Electrical Instruments in the House". Saving Electricity. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI)*, 12(9), 6107-6112.
6. Obidjonovich, Z. I., & A'Zamjon, A. D. (2021). 6-sinf fizika fanida tovush hodisalarini o'qitish orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 424-432.
7. Alijanov, D. (2022). ФИЗИК БИЛИМЛАРНИ ФАНЛАРАРО АЛОҚАДОРЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ВА СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ. *Science and innovation*, 1(В8), 794-802.
8. Алижанов Д. 6-СИНФДА ЁРУҒЛИК ҲОДИСАЛАР ҲАҚИДА ДАСТЛАБКИ МАЪЛУМОТЛАР БОБИНИ ЎҚИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛАР //Збірник наукових праць ЛОГОС. – 2021.

9. Alijanov, D., & Zaxidov, I. (2022). Таълимда фанлараро боғланишларнинг функциялари. *Science and innovation*, 1(В7), 1406-1411.
10. Алижанов, Д. (2021). 6-СИНФДА ЁРУҒЛИК ҲОДИСАЛАР ҲАҚИДА ДАСТЛАБКИ МАЪЛУМОТЛАР БОБИНИ ЎҚИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛАР. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.